

# **Ajdodlar merosi tinchlikni qadrlashga undaydi**



Prezident Shavkat Mirziyoev 16 noyabr kuni Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurdi.

Dastlab buyuk olim Hakim at-Termiziy maqbarasi ziyorat qilindi. Qur'on oyatlari tilovat etilib, Allohdan yurtimizga tinchlik, xalqimizga farovonlik tilab duo o'qildi.

Ulamolar bilan suhbatda bugun dunyoda turli nizo va urushlar bo'layotgani, begunoh insonlar qoni to'kilayotgani afsus bilan qayd etildi. Bu yurtimizdagи tinchlik-osoyishtalik qadrini yanada teran anglatib, insonda shukronalik ruhini uyg'otadi. Bu ne'matlar ahamiyatini, Termiziy kabi bobolarimiz ilm-ma'rifatini yoshlarga yetkazish muhimligi ta'kidlandi. Shu masalalar bo'yicha Termizda ilmiy konferensiya o'tkazish taklifi bildirildi.